

O‘SMIRLIK DAVRIDAGI XULQ OG‘ISHLARI VA JINOYAT SODIR ETISHGA MOYIL BO‘LGAN O‘SMIRLARNI O‘RGANISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Hasanova Sabina Muxtarovna

Buxoro psixologiya va xorijiy tillar insituti

”Psixologiya” yo’nalishi 2- bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada voyaga yetmagan shaxslarni xulq-atvorning buzilishi yoki ijtimoiy moslashuvning muammolari. o‘smirlik davridagi xulq og‘ishlari va jinoyat sodir etishga moyil bo‘lgan o‘smirlarni o‘rganishning psixologik xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: xulq-atvor, o‘smir, zo'ravonlik, hayotiy pozitsiya, iqtisodiy inqirozlar, agressiya, buzg'unchi harakatlar, kuzatish, suhbat, tabiiy eksperiment, biografik tahlil, psixologik ekspertiza, bo'ysunmaslik, psixokorreksiya, psixoprofilaktika, obyektivlik, subyektivlik, ehtiyojlar, qiziqishlar, his-tuyg'ular, ijtimoiylashuv, jinoyatchilik.

Kirish

Insoniyat paydo bo‘lganidan etiboran farzandlarining barkamol voyaga etishi jamiyatda muhim muammo sifatida qarab kelingan. Chunki, jamiyat mavjud ekan, insonga xos barcha sifatlar, mafkuraviy qarashlar uning xarakteriga, ongiga, tafakkuriga singdirib boriladi. Tarbiyaning maqsadi, mazmuni va unga qo‘yiladigan talablar jamiyat o‘zgarishi, davr o‘tishi va zamon rivojlanishi bilan ham o‘zgarib boraveradi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda barqarorlashib borayotgan ijtimoiy-siyosiy vaziyatni idrok qilishning natijasi har bir shaxsda paydo bo‘layotgan psixologik holatlar, psixologik jarayonlar u yoki bu tarzda shaxsdan kuchli bilim va tajribalarni talab etmoqda.

Har qanday xalqning, davlatning, yoki millatning ma’naviy taraqqiyoti darajasi o‘sha davlatda, yurtda mavjud ma’naviy boyliklar ko‘lami butun bir xalq yoki har bir insonning ma’naviy-ma’rifiy barkamolligi bilan o‘lchanadi. Insoniyat tafakkuri necha ming yillik tarixga ega bo‘lsa, uning har bir bosqichida o‘ziga xos bilim va g‘oyalar vujudga kelgan.

Adabiyotlar tahlili

Ma’lumki, psixologiya fanida aynan o‘smirlik davri va o‘smirlik davridagi xulq og‘ishlari muammosiga bag‘ishlangan va uning barcha yo‘nalishlarini batafsil bayon etishga qodir ilmiy adabiyotlar etarli bo‘lmasa-da, bugungi kunda fan olamida va jamiyat taraqqiyotida o‘smirlarning o‘zaro munosabati va ularning ziddiyatli

vaziyatlardagi xulq- atvori muammosining zarurligini ko'rsata oluvchi va uning "metodologik ildizlarini" asoslab bera oluvchi ilmiy tadqiqotlarni alohida qayd etish mumkin.

Mazkur adabiyotlarni tahlil qilar ekanmiz, o'smirlik davridagi xulq og'ishlariga taalluqli ayrim umumiy jihatlarni ijtimoiy psixologiya fani nuqtai nazaridan tadqiq qilishimizga to'g'ri keladi. CHunonchi, barcha tadqiqotchilar ham psixologiyaning metodologik tamoyillariga amal qilgan holda o'smirlik davridagi xulq og'ishlari uchun muxim bo'lgan u yoki bu jihatni nazariy-ilmiy tarzda asoslab berganlar. Bular ichida o'smirlarning xulq-atvori uchun muxim nazariy-ilmiy ahamiyat kasb etuvchi ijtimoiy psixologik vazifalarni aniqlashga qaratilgan tadqiqotlarni Andreeva G.M., Zabrodin YU.M., Karnegi D., Karimova V.M., Parigin B.D., Snigireva T.V., Filippov A.V., YAdov V.A., G'oziev E.G.; Grimak L.P., Lomov B.F., Leytes N.S., Golubeva E.A.Petrovskiy V.A., Rubinshteyn S.L.; ijtimoiy ustanovka bilan bog'liq tadqiqotlarni Asmolov A.G., Nadirashvili SH.A., Uznadze D.N., SHixirev P.N., Allpokt G.W., shaxsga munosabat tizimi asosida yondashuv istiqbollariga bag'ishlangan tadqiqotlarni Zdravomislov A.G., Kuzmin E.S., Lazurskiy A.F., Muksinov R.I., Stolin V.V., Bogoslavskiy V.V.; ta'lim muassasalarida psixologik xizmat modelini tadqiq qilishga bag'ishlangan tadqiqotlarni Breynshteyn M.S., Dubrovina I.V., Kala U.V., Rudik V.V., Leymets X.O., Mattes G.O., Pratuivich YU.M., Sierd YU.L. alohida qayd etish mumkin. Bu esa o'smirlarning ziddiyatli vaziyatlardagi xulq- atvori jarayonining bugungi kundagi ayrim dolzarb jihatlari, muammolari va uning yechimlari haqida o'ylashga, fikr mulohaza yuritishga va o'z tadqiqotimiz vazifalarini belgilab olishga nazariy - ilmiy va metodologik manba sifatida yordam beradi, deb o'ylaymiz. Ayniqsa, olimlar tomonidan bugungi kunda ijtimoiy-psixologik hodisalarga inson taraqqiyoti va qadriyatlarini asosida yondoshuv muammosining (M.G.Andreeva, YU.M.Zabrodin, D. Karnegi, E.G'oziev, V.M.Karimova, I.S.Kon, C.I. Koralev, B.D.Parigin, E.V.SHoroxova) va shaxs va faoliyat uyg'unligini ta'minlashga xizmat qiluvchi psixologik yondashuvni ta'minlash muammosining L.S.Vigotskiy, M.G. Davletshin, U.Djeyms, A.G.Kovalev, A.N.Leontev, A.V.Petrovskiy, S.L. Rubinshteyn, V.A.Tokareva, E.Fromm, Kodirov B.R.) o'rta tashlanishi o'smirlarning ziddiyatli vaziyatlardagi xulq- atvori metodologiyasi haqida jiddiyroq o'ylashni va mulohaza yuritishni taqozo etmoqda.

O'smirlik davri eng murakkab va shu bilan birga muhim taraqqiyot bosqichidir. Ilk o'smirlik 11-13 yoshni, katta o'smirlik - 14 - 15 yoshlarni o'z ichiga oladi. O'smirlik - organizm taraqqiyotidagi shiddat va notekislik bilan xarakterlanib, bu davrda tananing intensiv tarzda rivojlanishi va suyaklarning qotishi ro'y beradi. Yurak va qon tomirlar faoliyatida ham notekislik bo'lib, bu ham bola fe'lining o'zgaruvchan, dinamik va ba'zan noma'qulliklar va noqulayliklarni keltirib chiqaradi. Bular albatta asab tizimiga ham o'z ta'sirini ko'rsatib, bola tezga achchiqlanadigan yoki

tormozlanish yuz berganda anchagacha depressiya xolatidan chiqolmaydigan tushkunlikda qolishi ham mumkin.

O‘smir jismoniy taraqqiyotini belgilovchi asosiy omil jinsiy balog‘at bo‘lib, u nafaqat psixik, balki ichki organlar faoliyatini ham belgilaydi. SHu bilan bog‘liq holda ongli (ko‘pincha ongliz) jinsiy mayllar, shu bilan bog‘lik noxush xis - kechinmalar, fikrlar paydo bo‘ladiki, bola ularning asl sababini ham tushunib etolmaydi. Psixik taraqqiyotning o‘ziga xosligi shundaki, u muttasil rivojlanib boradi, lekin bu rivojlanish ko‘plab qarama - qarshiliklarni o‘z ichiga oladi. Bu taraqqiyot o‘quv jarayonida kechgani uchun ham to‘g‘ri tashkil etilgan o‘quv faoliyati bola psixikaning muozanati va uning turli fikr - o‘ylardan chalg‘ishiga zamin yaratadi. Ayniqsa, diqqat, xotira, tafakkur jarayonlari rivojlanadi. Ayni shu davrda bola mustaqil ravishda fikrlashga intila boradi. Chunki bu davrda u ko‘proq o‘z fikr - o‘ylari dunyosida mushohada qilish, olam va uning sirlarini bilishga, nazariy bilimlarni ko‘paytirishga intiladi. Buning sababi - yana o‘sha kattalikka o‘tish bo‘lib, bolada o‘ziga xos “kattalik” xissi paydo bo‘lib, bu narsa uning gapirishi va fikrlashlarida ham ifodalanadi. SHuning uchun ham maktabda berilgan mustaqillik va to‘g‘ri tashkil etilgan o‘qish sharoitlari, samimiylik muhiti unda mustaqil fikrlashiga katta imkoniyatlar ochishi va undagi ijodiy tafakkurni rivojlantirishi mumkin. SHunga bog‘liq tarzda o‘smirning o‘z falsafasi, o‘z siyosati, baxt va muhabbat formulasi yaratiladi. Mantiqan fikrlashga o‘rganishi esa unga o‘zicha aqliy operatsiyalarni amalga oshirish, tushunchalar va formulalar dunyosida harakat qilishga majbur qiladi. Bu o‘ziga xos o‘smirlik egotsentrizmining shakllanishiga - butun olam va uning qonuniyatlari unga bo‘ysunishi kerakday fikrning paydo bo‘lishiga olib keladi. SHuning uchun ham aynan o‘smirlik paytida bolalar o‘z ota - onalari bilan hadeb tortishaveradilar. Aniq bir to‘xtamga kelolmasa ham tortishish biror fikrni izhor qilish ehtiyojining o‘zi unga juda yoqadi.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, shaxslararo munosabatlarda har doim nizoli vaziyatlar vujudga kelib turadi. Nizo tushunchasi ” lotincha “ so‘zdan olingan bo‘lib, “nizous” – “to‘qnashuv” degan manoni anglatadi va ijtimoiy psixologiyada o‘zaro harakat qiluvchi sub’ektlarning qarama-qarshi maqsadlarining, qiziqishlarining fikr va pozitsiyalarining to‘qnashuvi sifatida qaraladi. Nizo ishtirokchilari sifatida alohida shaxslar, ijtimoiy guruhlar, tashkilotlar davlatlar namoyon bo‘lishi mumkin. O‘smirlar orasidagi nizo turlari quyidagicha bo‘ladi: shaxs aspekti (belgi, xususiyatlar majmuasi) - shaxs aspekti, shaxs - shaxs, shaxs - guruh, guruh-guruh. Ushbu nizolar, o‘zaro harakat turlarining barchasi hayot mobaynida uchraydi. Bizning mavzuimizga taalluqli bo‘lgan nizo turi bu shaxs - guruh yani o‘smirlar guruhdagi shaxslararo munosabatlarida kelib chiqadigan nizolarni aniqlash va ularni bartaraf etishdir.

Nizoning kelib chiqishi sabablarini aniqlash uchun birinchi navbatda: Nizoning namoyon bo‘lish sharoitlarini aniqlash kerak. Ziddiyatlarning xarakteri va ularni

amalga oshishi bevosita nizo namoyon bo'layotgan muammoli shart-sharoitlarga bo'g'liq bo'ladi.

Nizoning kechishi (namoyon bo'lish) sharoitlarini umumlashgan holda quyidagicha bo'lishi mumkin. Birinchidan:

1. Makon va zamondagi vaqt (ziddiyat amalga oshiriladigan joy va vaqt, u yechilishi, barham etilishi lozim bo'lgan vaqt).
2. Ijtimoiy - psixologik (nizolashuvchi guruhdagi iqlim, o'zaro harakat, muloqot darajasi va tipi, tomonlarning holati).
3. Ijtimoiy ziddiyatga turli ijtimoiy guruh qiziqishlarining jalb etilishi (oilaviy, jinsiy, kasbiy, etnik, milliy)

Ikkinchidan: Nizoli vaziyat obrazi qanday ekanligini bilish zarur. Nizo qatnashchilarning xarakteristikasi va uning namoyon bo'lish jarayoni bilan nizoli hatti-harakat oralig'ida nizoli vaziyat obrazlari (tasavvurlari) o'rin egallaydi va u quyidagicha elementlarni o'z ichiga oladi.

1. Ziddiyatdagi tomonlarning o'zi haqidagi tasavvurlari (o'zining ehtiyoji, maqsadi, motivi, imkoniyatlari, qadriyatlari haqida).
2. Ularning qarama-qarshi tomon haqidagi fikrlari (ularning ehtiyojlari, qadriyatlari, motivlari, maqsadlari haqida).
3. Nizo yuzaga kelgan shart-sharoit haqidagi tasavvurlar.

Ushbu nizoli vaziyat obrazlarini tahlil qilish juda muhim chunki, ko'p hollarda: birinchidan nizoli hatti-harakatni bevosita ziddiyatli reallik emas, balki obrazlar belgilab beradi.

ikkinchidan bu obrazlarni o'zgartirish evaziga bartaraf etishning real imkoni mavjudligidir. Bu nizo qatnashchilariga tashqi tasir tufayli amalga oshiriladi.

uchinchidan esa bu nizo qatnashchilarining harakat turlarini ham aniqlashimiz kerak.

1. Himoya, hujum, neytral.
2. Ularni amalga oshirishdagi faollik darajasi (faol-passiv, qo'zg'ovchi-javob).
3. Bu hatti-harakatlarning yo'naltirilganligi

To'rtinchi navbatda esa nizo natijalarining kelib chiqishi qanaqa bo'lishi mumkin.

1. To'liq yoki qisman bo'ysunish.
2. Kompromiss (murosa).
3. Nizoli harakatdan o'zini to'xtatish.
4. Integratsiya.

Nizolarning kelib chiqish sabablarini aniqlash uchun faqat bugina emas, balki nizoning yuzaga kelish bosqichlarini ham bilishimiz shart.

Psixologiyada nizoning jarayon sifatida ifodalanishida to'rt xil asosiy ziddiyatning hayot darajasi bosqichi ko'rsatiladi.

1. Ob'ektiv nizoli vaziyatning yuzaga kelishi. Masalan: "A" ning etishishga intilgan holatiga "B" ning holati yoki intilishlari qarshilik qiladi. Ob'ektiv nizoli vaziyat doimo ham anglanavermaydi.
2. Ob'ektiv nizoli vaziyatni anglash. Obektiv ziddiyat anglanishi bilan u real nizoga aylanadi va muayyan xulq yuzaga kelishiga turtki bo'ladi.
3. Nizo vazifalari:
 - a) Buzuvchi nizolar - psixologik tanglik yanada chuqurlashtirish va bu vazifalarda ijtimoiy maqullanmaydigan usullardan vositalardan muxolif shonini pastga urish, haqoratlash va h.k. foydalanish. Bu holat psixologik noqulaylik hissida guruh azolarining o'zaro harakatining samaradorligi pasayishida namoyon bo'lishi mumkin. Maxsulli (konstruktiv) nizo ijtimoiy psixologik jarayonlarning tuzilishiga, dinamikasiga va mahsuldorligiga ijobiy tasir etuvchi va shaxsning o'z-o'zini takomillashtirishga manba bo'lib xizmat qiluvchi nizo hisoblanadi.

Xulosa

Maktab va litsey o'quvchilari o'rtasida nizo va nizoli vaziyatlarni bartaraf qilish jinoyatchilikni oldini olish va guruhda sog'lom psixologik iqlimni yaratish uchun har bir pedagog yoki amaliy psixolog psixoprofilaktik va psixokorreksion ishlar olib borishi kerak. Psixoprofilaktik ishlarining maqsadi o'smirlar orasidagi nizoli vaziyatlar oldini olish va uni paydo bo'lishiga to'sqinlik qilishdan iborat.

O'smirlarni "katta"lashish jarayonida muloqotni rivojlantirish qobiliyatini o'stirish tarbiyaviy harakatlarni ko'zlangan maqsadda nafaqat hozirgi muammolarga, balki bo'lajak hayotdagi duch keladigan vazifalarni echishga o'rgatish. Nizolar paydo bo'lganda va o'smirlar orasida jinoyat sodir bo'lganda shuni etiborga olish kerakki, o'quvchilar bilan o'qituvchilar o'rtasidagi nizolar nafaqat bir tomonni xatosining natijasi, muloqotda qatnashuvchilarni ikki tomonlama aybdorligidir. Shuning uchun o'quvchilar bilan o'qituvchilar o'rtasidagi munosabatni korreksiya qilish lozim. Psixokorreksion tadbirlar o'tkazilganda ish mualliflari keyingi tavsiyalarni berishadi: guruhda bir-biriga etibor berishni tadbir etish, suhbatlashish yaxshi psixologik muhitni saqlash. O'quvchilar o'rtasida xushmuomalalik, xushfe'llik qoidalarini o'rnatish. O'quvchilar o'rtasida bir-biriga komplimentlar aytishini tashkil qilinsa, nizolarga ham o'rin qolmaydi. Nizolarni bartaraf etish uchun guruhda har xil o'yinlar tashkil qilish har bir o'qituvchi yoki amaliy psixologning ishlarini rivojlantirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Baratov Sh. O'quvchi shaxsini o'rganish usullari.-T.:O'qituvchi,1995.
2. Abu Rayxon Beruniy, Ruhiyat va ta'lim-tarbiya haqida.-T.: 1992. 116 bet.
3. Базылевич Т.Ф. Развитие концепции целостной индивидуальности. В сб.: V.D Nebilitsin. Jizn i nauchnoe tvorchestvo». M., Nauka, 2003.
4. Gamezo A. «Atlas po psixologii» Moskva 2011y.
5. Davletshin M. G. «Umumiy psixologiya» T-2010y.

6. Nemov R. S. «Psixologiya» T. 1.M. 2006y.
7. Karimova V. M. «Psixologiya» T.SHarq 2002y.
8. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. - T.: O‘qituvchi. 1994.
9. Karimova V.M. Psixologiya. O‘quv qo‘llanma. - T.: A.Qodiriy nomli xalq merosi nashriyoti. 2022.
10. Karimova V., Akramova F. Psixologiya / Ma’ruzalar matni. T., 2002.
11. Karimova V.M. Targ‘ibotning psixologik uslublari. - T.: Ma’naviyat. 2000.

Internet manbalari:

1. <http://www.Iib.psixology.msu.ru>
2. <http://www.Iib.psixology.ru>
3. <http://www.Iib.psixology.rin.ru>
4. <http://www.Iib.psixology.narod.ru>